

## “KONSTITUTSIYA BOSH QOMUSIMIZ”



Sinxonasi yoki zal bayramga xos tarzda bezatiladi. Mavzuga mos rasmlar, palakatlar, Davlatimiz ramzlari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kitobi, ro'znoma va oynomalarning bayram sonlari hozirlanadi. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi kuylanadi. Tadbir o'qituvchining kirish so'zi bilan boshlanadi.

— Assalomu alaykum, aziz ustozlar, qadrli o'quvchilar! Mana, bugun biz konstitutsiya kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan tadbirda qatnashish uchun yig'ilib turibmiz.

Tadbir davomida siz o'quvchilarimizning qomusimiz borasida nechog'li bilimga ega ekanliklariga guvoh bo'lasiz. Chunki tadbirimiz mavzusi «Konstitutsiya — bolalar nigohida» deya nomlanadi.

Sahnaga o'quvchilar chiqishadi. O'qituvchi ushbu tarixiy kunga qisqacha izoh beradi.

— O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z erkiga, tiliga, diniga ega bo'ldi. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 2001 yil 4 yanvarda F-1322-raqamli «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'rganishni tashkil etish to'g'risida» gi Farmoyishini qabul qildi.

Ana shu Farmoyishga asosan endilikda barcha ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mukammal o'rganilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida «Konstitutsiya sabog'i», boshlang'ich sinflarda «Konstitutsiya alifbosi» o'rgatilsa, yuqori sinflarda «Konstitutsiya olamiga sayohat», «Davlat va huquq asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq asoslari» fanlari o'qitilmoqda.

Qomusimizni o'rganishdan asosiy maqsad, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish, uning mazmun-mohiyatini to'la tushunib yetishlariga erishishdir.

O'quvchilar qomusimiz haqida so'zlaydilar.

**1-o'quvchi:** Mustaqil O'zbekistonimizning Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.

**2-o'quvchi:** 1991 yil noyabrda Konstitutsiya loyihasining ilk varianti tayyorlandi. U 158 moddadan iborat edi. 1992 yil bahoriga kelib loyihaning 137 moddadan iborat 2-varianti ishlab chiqdi.

**3-o'quvchi:** 3-tahrirdan so'ng loyiha 128 moddani tashkil etdi. Loyiha ushbu taxminan 2 yil tshtandi. 2, 5 oy mobaynida esa umumxalq muhokamasida bo'lib, yanada mukammallashdi.

**4-o'quvchi:** Va nihoyat, mustaqil O'zbekistonimizning yangi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabr XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilinib, 8 dekabr — umumxalq bayrami, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni, deb e'lon qilindi.

**O'qituvchi** (qo'lida Konstitutsiya kitobi):

—Xalqim diliga yog'du,  
Sochar misoli oftob.  
Qonunlar majmuasi  
Muqaddas, ezgu kitobi

Konstitutsiya — bu bizning huquq va burchlarimizni ifodalab beruvchi majmuadir. O'zbekistonda yashovchi har bir millat vakili, har bir fuqaro qonun oldida tengdir.

«Huquqiy davlatning quroli ham, so'zi ham, ko'zi ham qonundir», degan edi muhtaram Prezidentimiz. Bizning mustaqil Vatanimizda davlat, uning organlari, jamoat birlashmalari va barcha fuqarolar Konstitutsiyaviy qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. Shular qatorida siz, o'quvchilarning ham Konstitutsiyada ko'rsatilgan barcha qonunlarga bo'ysunishingiz majburiydir.

**5-o'quvchi:** Chunki qonunlar jamiyat hayotining asosi bo'lib, davlat faoliyatini tartibga soluvchi normalardir. Demak, biz, huquqiy davlatning fuqarosi sifatida huquqiy bilimlarga ega bo'lishimiz, Konstitutsiyada belgilangan qonun-qoidalarga bo'ysunishimiz shartdir.

**6-o'quvchi:**

— Olti bo'limli kitob,  
Bor yigirma olti bob.

Bir yuz yigirma sakkiz,  
Moddani o'rganamiz.

**O'qituvchi:** Ha, bolalar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iboratdir. Biz ularni mashg'ulotlar davomida o'rganib kelmoqdamiz. Qani, bu moddalar haqida kim qanday fikr bildira oladi?

O'quvchilar Konstitutsiya moddalariga izoh beradilar.

—Vatanimning nomini  
Aytar birinchi modda.  
O'qib, o'rgansak uni,  
Muhabbat ortar qalbda.

\* \* \*

—Moddaning to'rtinchisin  
Ulug' tilim tasdiqlar.  
Ajdodlarim orzusi,  
Ko'zlarimda charaqlar.

\* \* \*

—Vatanimning bayrog'i,  
Dilginamning qarog'i.  
Madhiya hamda gerbim,  
Porloq yo'lim chirog'i (5-modda).

\* \* \*

—Azimdir Toshkent shahri,  
Juda keng saxiy bag'ri.  
Udir Vatan yuragi,  
Ulug' xalqim tilagi (6-modda).

\* \* \*

— Burchlarimizdan so'zlar,  
Bilsang, o'n birinchi bob.  
Burchimni anglashimda,  
Qomusim misli oftob.

\* \* \*

— Huquq, erkinlik haqda,  
18-, 21-, va 31-modda.  
O'qib, uqib, o'rganib,  
Ama! qilamiz, albatta.

\* \* \*

— Bo'lmoq yaxshidir mulkdor,  
Ham fermeru chorvador.  
Ko'chmas mulkning egasi,  
Tadbirkorlar sarasi (36-modda).

\* \* \*

—O'ttiz yettinchi modda

Mehnat qiiish haqida.  
Har kirm sevsa kasbini,  
Egaliagay baxtini.

\* \* \*

— O'ttiz to'qqizinchi modda  
So'zlaydi ta'minotdan.  
Har bir inson keksaygach,  
Mamnun bo'lar hayotdan.

\* \* \*

— Tibbiy xizmat doimo  
Kerak har bir kishiga.  
Sog'lom tanda sog' aql,  
Urtum berar ishiga (40-modda).

\* \* \*

— Bepul bilim olamiz,  
Hur Vatanim qo'ynida,  
Vatanga xizmat qiiish —  
Har o'g'il, qiz o'yida (41-modda).

\* \* \*

— Atrof-muhitni saqlash,  
Barchaning teng burchidir.  
Uni asrab-avaylash —  
Vijdonlining ishidir (50-modda).

\* \* \*

— Milliy boyligimizni  
Qadriga yetmoq kerak.  
Yer, suv, o'simlik bari  
Elimga doim kerak (55-modda).

\* \* \*

— Oila — jamiyatning  
Asosiy bo'g'inidir.  
Oltmish uchinchi modda  
Shu bo'g'in talqinidir.

\* \* \*

— Oitmish oltinchi modda  
Farzandiik burchin so'ziar.  
Har soniya, soatda  
Insoniyikni ko'ziar.

\* \* \*

— Yetmish oltinchi modda,  
Yurtim oliy organi -

Oliy majlis haqida,  
Qunt bilan o'rgan uni.

\* \* \*

— Yuz yigirma beshinchi,  
Moddani anglash kerak.  
Ozod, hur Vatan uchun  
Dovyurak o'g'lon kerak.

O'g'il bolalar ijrosida milliy raqslarimizdan biri ijro etiladi.

**O'qituvchi:** Barakalla,  
bolajonlar! Juda yaxshi, sizlar qomusimiz borasidagi o'z fikrlaringiz bilan bizni xursand qildingiz. Xalqimizning oliy maqsadi huquqiy demokratik davlat barpo etish ekan, ana shu ulug' ishlarda siz, yoshlarning ham munosib hissangiz bo'lishi kerak.

— Bolalar, konstitutsiya moddalarini o'rganish davomida yuridik atamalar bilan ham tanishdingiz. Xo'sh, ular nimalarni bildirar ekan? Shu haqdagi fikringizni bildirsangiz.

— Konstitutsiya - Davlatning asosiy qonuni.

— Qonun - davlat hokimiyati Oliy organi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan hujjat.

— Respublika - davlatni idora etish shakli.

— Sessiya - majlis, kengash, vakolatli organlarning tashkiliy- huquqiy faoliyat shakli.

— Fuqarolik - shaxsning biror davlatga mansubligi.

— Farmon - davlat boshlig'i tomonidan chiqariladigan hujjat.

— Sud - ish, sudlov ishlarini olib boruvchi maxsus davlat organi, u fuqarolik da'volari yoki jinoiy ishlarni ko'rib, qonun doirasida hukm chiqarish vakolatiga ega.

— Hukm - ayblanuvchiga jazo berish yoki uni oqlash to'g'risida chiqarilgan sud qarori.

— Referendum - umumxalq fikrini bilish.

**O'qituvchi:** Barakalla. Baprchamizga ma'lumki, huquqiy davlat - qonun oldida fuqarolarning tengligini ta'minlash va qonun ustuvorligiga erishish deganidir. Bizning davlatimizda qonun hamisha ustuvordir. Bu yil Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga 23 yil to'ldi.

Tavallud ayyoming bo'lsin muborak,

Yurtning e'zoziga aylangan kitob.

Xalqingga tengligu ezgulik tilab,

Har bitta satringda qilasan xitob.

Bolalar Vatan haqida she'r, ashula, maqol, hikmat va hadislardan, namunalar aytishadi va raqslar ijro etadilar.

O'qituvchi tadbir ishtirokchilariga omad, o'qishlarida muvaffaqiyat tilab, yakunlovchi so'zini aytadi:

—Ushbu kunda siz, bolajonlar,  
O'zingizsiz yurtim erkasi.  
Ishonamari, sizlar, albatta,  
Bo'lursizlar Vatan ertasi.  
Tadbir «Vatanim» qo'shig'ini  
kuylash bilan yakunlanadi.